

Noyabr, 2025-Yil

TABIAT BOG'LARINING MILLIY VA XORIJIY QONUNCHILIKDAGI HUQUQIY
HOLATI

Shopo'latova Gulnora Otabek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi.

E-mail: shopolatovagulnora@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17569276>

Annotatsiya. Mazkur tezisda tabiat bog'larining huquqiy maqomi, ularning tashkil etilishi, vazifalari va boshqaruv tartibi yoritilgan. Ishda O'zbekiston Respublikasining ekologik qonunchiligida tabiat bog'lariga oid normalar tahlil qilinadi, shuningdek, ularni boshqarish va muhofaza qilishdagi amaliy muammolar ko'rib chiqiladi. Tezisda xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirma tahlil o'tkazilib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida mavjud huquqiy mexanizmlarning samaradorligi baholanadi va amaliyotda uchrayotgan muammolar yuzasidan takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: Tabiat bog'lari, ekologik qonunchilik, tabiat bog'larini boshqarish, tabiat bog'larini muhofaza qilish, amaliy muammolar.

THE LEGAL STATUS OF NATIONAL PARKS

Abstract. This thesis explores the legal status of national parks, including their establishment, functions, and management procedures. The research analyzes the legal norms related to national parks under the environmental legislation of the Republic of Uzbekistan. Additionally, the study examines practical challenges in the governance and protection of these parks. A comparative analysis is conducted using the experience of foreign countries, and proposals for improving national legislation are presented. Based on the analysis of legal and regulatory documents, the effectiveness of existing legal mechanisms is evaluated, and practical recommendations are offered to address existing issues.

Keywords: national parks, environmental legislation, management of national parks, protection of national parks, practical challenges.

Kirish:

Tabiatni muhofaza qilish bugungi kundagi global darajadagi hamda dolzarb muammolardan biridir, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan murojatnomasining 71-maqsadi "Bialogok xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta'nimlash. Bu maqsad asosida 2030 yilgacha Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 12 foizgacha kengaytirish, 2 million gektar hajmda tabiiy yaylovlar va pichanzorlar o'simliklarini biobotanik tekshirishni har yili amalga oshirish"¹ belgilangan.

Tabiat bog'lari maxsus muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimining muhim bo'g'ini.

Tabiat bog'lari ekologik muvozanatni saqlash, bialogik xilma-xillikni muhofaza qilish va aholiga sog'lom rekreatsiya hududlarini yaratishda o'rni muhim.

O'zbekiston Respublikasi Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi qonunida tabiat bog'lari ekologik, ilmiy, estetik, madaniy va sog'lomlashtirish maqsadlarida tashkil etildi.

Shu bilan birga tabiat bog'larining huquqiy maqomi, boshqaruv tizimi va amalda yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2025-y., 06/25/56/0274-son

Noyabr, 2025-Yil

Mazkur tezisda O'zbekiston respublikasida tabiat bog'larining huquqiy maqomini tahlil qilish, ularni tashkil etish, boshqaruv tizimi va mavjud normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi.

Shuningdek milliy qonunchilikni xorijiy tajriba bilan taqqoslab o'rganilib mavjud muammilar yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

Asosiy qism:

Tabiat bog'lari-bu alohida ekologik, madaniy va estetik ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda saqlab qolish va foydalanish uchun mo'ljallangan hududlar.

Tabiat bog'lari tabiatni muhofaza qilish uchun mo'ljallangan yerlarning bir toifasi bo'lib, tabiat bog'larini tashkil etish, hududini ajratish va ularning huquqiy rejimlarini belgilash qonunda o'z aksini topgan.

Tabiat bog'larini tashkil etish O'zbekiston respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi taqdimnomasiga asosan tegishincha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari bilan davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklida tashkil etiladi. Jumladan: "Orolqum", "Pop", "Omonqo'ton", "Yuqori To'palang" va "Bobotog"² milliy tabiat bog'lari tashkil etilgan.

Tabiat bog'lari milliy tabiat bog'lari va mahalliy ahamiyatga molik tabiat bog'lariga ajratish mumkin. Milliy tabiat bog'lari Vazirlar mahkamasining qarori asosida, mahalliy ahamiyatga molik tabiat bog'lari mahalliy davlat hokimiyati organining qarori asosida tashkil etiladi. Milliy tabiat bog'larini moliyalashtirish O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi orqali davlat byudjeti mablag'lari, jamg'arma mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.³

Tabiat bog'lari zonolari qaysi davlat organining tasarrufida bo'lsa, ularning o'lchamlari va chegaralarini o'zgartirish davlat ekologiya ekspertizasi xulosasini hisobga olgan holda shu davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi tabiat bog'larini tashkil etish, muhofaza qilish, va undan foydalanish sohasida davlat boshqaruvini Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tabiat bog'larining toifasi boshqa toifaga o'zgartiriladigan bo'lsa bu boshqa toifada sifatida qayta tashkil etilishi mumkin. Tabiat bog'larini tugatish qancha muddatga tuzilgan bo'lsa muddat tugashi bilan, shuningdek tabiiy ofatlar va texnogen tasirlar oqibatida tabiat bog'larigadi obyektlar va majmualar o'z ahamiyatini yo'qotsa tugatiladi.

Tabiat bog'larining ham kadastr yuritiladi va bu hududning toifasi, jug'rofiy holati, miqdor va sifat xususiyati, ekologik, iqtisodiy, ilmiy, marifiy jihatlari, shuningdek yer egasi va yerdan foydalanuvchilar, tabiat bog'larining ijarachilari va mulkdorlari haqida malumotlarni qamrab oladi.

Tabiat bog'larining davlat kadastr tabiat bog'larining rejimini taminlash, ilmiy tadqiqot o'tkazish, ishlab chiqarish kuchlarni rivojlantirish va joylashtirishni rejalashtirish maqsadida yuritiladi.

² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.03.2022-y., 09/22/93/0182-son

³ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 01.11.2024-y., 09/24/707/0872-son

Noyabr, 2025-Yil

Tabiat bog'larining kadastlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan birgalikda yuritiladi.

Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tasarrufidagi tabiat bog'lari bo'yicha passport tuzadilar, unda hududni, uning rejimi va boshqaruvi to'g'risidagi malumotlar mavjud bo'ladi.

Tabiat bog'lari pasportlari hisobi reystrda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan birgalikda yuritiladi va mazkur qo'mitaning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

Tabiat bog'lari pasporti ushbu tabiat bog'i tegishli bo'lgan davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarda saqlanadi, bu pasportning nusxasi esa O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga beriladi. Pasportga:

muhofaza etiladigan tabiiy hududni qayta tuzish to'g'risidagi hujjat (qaror);

unda joylashgan muhofaza etiladigan tabiiy obyektlar va majmualarning asosiy turlari fotosuratlari;

alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud va uning muhofaza zonasi doirasida yer uchastkalarining chegaralari chizilgan muhofaza etiladigan tabiiy hudud va uning muhofaza zonasi xaritasi ilova qilinadi.

Zaruriyat bo'lganda muhofaza etiladigan tabiiy hududning pasportiga pasportda ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar (materiallar) ilova qilinadi.⁴

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning bir toifasi sifatida tabiat bog'larining ham boshqarish rejalari tuziladi, unda hududlarni boshqarish rejalari tabiiy obyektlar va majmualarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish bo'yicha barcha tashkiliy, tabiatni muhofaza qilish yo'nalishidagi, texnikaviy tadbirlar majmuasidir.

Tabiat bog'larini boshqarish rejalari ham davlat ekologik ekspertizasidan o'tkaziladi.

Davlat ekologiya ekspertizasini o'tkazish tartibi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun"⁵ da belgilangan. Mazkur qonunga ko'ra davlat ekologiya ekspertisasi xo'jalik qarori qabul qilinishidan oldin o'tkazilishi shart bo'lgan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish tadbiri.

Tabiat bog'larini qo'riqlash qo'riqlov xodimlari tomonidan amalga oshiriladi va amalga oshiriladigan qo'riqlov ishlari maxsus nizomda belgilangan. Qo'riqlov xodimlari ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat inspektorlarida mavjud bo'lgan barcha huquqlari va imtiyozlaridan foydalanadi.

Tabiat bog'laridan foydalanishda amaliyotda bir qancha muammolar ham uchrab turadi.

Misol uchun: Resurs yetishmovchiligi, bu yetarli moliyaviy mablag', zamonaviy texnologiya, uskunalar yetishmasligi va malakali kadrlarning kamligi. Natijada ish jarayoni sekinlashib, sifat pasayadi, rejalashtirilgan natijalarga erishish qiyinlashadi.

Noqonuniy va ruhsatsiz foydalanish resurslar va malumotlarning noto'g'ri foydalanilishi bilan bog'liq muammo.

Nazorat va monitoringning yaxshi amalga oshirilmasligi malumotlarning sayozligi va eskirgan monitoring tizimlari tufayli yuzaga keladi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 30.08.2024-y., 03/24/951/0673-son

Noyabr, 2025-Yil

Tabiat bog'lari institutini o'rganar ekanmiz xorijiy davlat qonunchiligi taqqoslab o'rganish maqsadga muvofiq. Xususan Rossiya Federatsiyasi "Maxsus muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi federal qonunida Milliy bog'lar-tabiiy landshaftlarni, biologik xilma-xillikni va ekologik tizimlarni saqlash, shuningdek, fuqarolarga dam olish va rekreatsion faoliyatni tashkil etish maqsadida maxsus muhofaza qilinadigan hududlardir degan aniq ta'rif mavjud.

Bizning qonunda ham mavjud lekin amalda cheklangan.

Boshqaruv tizimi Rossiya Federatsiyasida federal xizmat mavjud Federal xizmat – Rosprirodnadzor To'liq nomi: Rossiya Federatsiyasining Tabiatni muhofaza qilish va ekologik nazorat Federal xizmati (Rosprirodnadzor). Bizda esa Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Rekreatsiya maqsadi Rossiya Federatsiyasi maxsus tartibda, bizda esa nazorat zaif, cheklangan holda amalga oshiriladi.

Tabiat bog'larining yuridik maqomi Rossiya Federatsiyasida to'liq mustaqil maqomda, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunda tabiat bog'larining yuridik maqomi aniq emas, boshqa toifalar bilan chalkashadi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda tabiat bog'lari o'zida ekologik, madaniy va estetik ahamiyatga molik obyetlardan foydalanish va muhofaza qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasi va mahalliy davlat hokimiyati organi qarori bilan tashkil etiladigan yerlar. Tabiat bog'larining o'zining foydalanish maqsadi mavjud. Tabiat bog'larini tashkil etish, ularni boshqarish Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tabiat bog'larini qo'riqlov xodimlari muhofaza qilishadi. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi va davlat tomonidan nazorat ham tashkil etilgan. Chunki tabiat bog'lari boshqa muhofaza etiladigan hududlar singari davlat mulki. Tabiat bog'laridan nomuvofiq foydalanish bo'yicha tegishli javobgarlik belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2025-y., 06/25/56/0274-son
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 05.05.2025-y., 03/25/1061/0409-son.
3. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.03.2022-y., 09/22/93/0182-son
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 01.11.2024-y., 09/24/707/0872-son
5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 30.08.2024-y., 03/24/951/0673-son